O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Isanturdiyev Sayfiddin Yusupbaevich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi tadqiq qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda respublikamizda, shuningdek Sirdaryo viloyatida aholi turmush farovonligini yanada oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar asoslangan, muallifning tavsiyalariilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligi, ijtimoiy infratuzilma, daromadlarni oshirish, investitsiya loyihalari

Kirish.Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti va har bir insonning farovonligi (nominal va haqiqiy daromadlar, ish bilan bandlik va boshqalar) darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar iqtisodiy ko‘rsatkichlar sirasiga kiritiladi. Bu ko‘rsatkichlar ishchi kuchini (aholini) takror ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning iqtisodiy asoslarini ochib beradi. Bu, ayniqsa, aholi daromadlari salmog‘i va ularni differensiatsiyalashda yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minlanmoqda va uni yanada mustahkamlash borasida bir qator ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, uning asosida esa ijtimoiy infratuzilma rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi asosiy vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko‘rsatib berilganidek “...iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sish hisobiga erishiladi. So‘nggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi”.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sish faqatgina maqsad bo‘lib qolmay balki, turmush tarzining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, tibbiy xizmat ko‘rsatishning yuqori darajasi, daromadlar va boshqa ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi. Kishilarning turmush darajasi muntazam o‘zgarib turadigan, hayotiy ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan uni qondirish imkoniyatlari, daromadlar darajasi va ish haqi darajasi orqali ifodalanadi.

Adabiyotlar sharhi.

OECDning “O‘zbekistonda iqtisodiyotni yashillashtirish” to‘g‘risidagi keng qamrovli hisobotida mamlakatning yashil o‘sish ko‘rsatkichlari batafsil tahlil qilingan. Unda 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha O‘zbekiston Prezidenti tomonidan tasdiqlangan strategik asos va harakatlar rejasi alohida ta’kidlangan (OECD, 2023). O‘zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan hamkorlikda Jahon bankining maslahat xizmatlari yashil o‘sish kun tartibini joriy etishda muhim rol o‘ynadi. Hisobotda iqtisodiy tiklanish va ekologik siyosatni iqtisodiy strategiyalar bilan birlashtirish zarurati muhokama qilinadi (World Bank, 2023). Birlashgan Millatlar Tashkiloti O‘zbekistonning Barqaror Taraqqiyot Maqsadlarini (BRM) qabul qilish borasidagi sa’y-harakatlarini e’tirof etadi, biroq turli mintaqalar va hamjamiyatlarda teng o‘sishni ta’minlaydigan yanada inklyuziv ijtimoiy siyosatlar zarurligini ta’kidlaydi (United Nations 2018). Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining qisqacha bayoni tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va uglerod chiqindilaridan ajratilgan o'sishga erishish uchun iqlim ta'sirini cheklash muhimligini ta'kidlaydi (UNDP, 2021).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekiston bo‘yicha umumiy mamlakat tahlili COVID-19 pandemiyasidan keyin ijtimoiy infratuzilma va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda duch kelayotgan muammolarni o‘rganadi (United Nations, 2021). O‘zbekistonning barqaror infratuzilma investitsiyalariga bag‘ishlangan bobda mamlakat infratuzilma rejalarining Parij kelishuvi va SDG doirasidagi xalqaro majburiyatlariga muvofiqligi tahlil qilingan (OECD, 2023).

Vazirlikning qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tashabbusi qishloq joylarda asosiy ijtimoiy infratuzilma sifatini yaxshilash uchun katta mablag‘ ajratilishini ta’kidlaydi (Ministry of Economic Development and Poverty Reduction, 2020).

Mahalliy olimlarning fikricha “Iqtisodiy ko‘rsatkichlar inson va jamiyat hayotining iqgisodiy jihatlarini, ehtiyojni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodalaydi” (Ismatov, 2016), bu esa bevosita ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga bog‘liq. MDH olimlaridan V.M.Gees esa “Infratuzilma shunchaki ma’lum bir sohaning jamlanmasi emas balki, ishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy hayotning samarali rivojlanishining sharti hisoblanadi” deb hisoblaydi (Geets, 2009).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma’lumotlarni yig’ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning sug’urta faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning echimlari bo’yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me’yoriy-huquqiy hujjatlar o’rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatmizda olib borilayotgan tub tarkibiy va institutsional o‘zgarishlar jamiyatni demokratlashtirish, “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida har bir mahallaning rivojlanish milliy modeli natijasida amalga oshirilishi, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi sifat o‘zgarishlar, islohotlar jumladan, iqtisodiy o‘sish va investitsiyaviy faollikning nisbatan yuqori darajasi, xalqaro hamkorlikni sezilarli darajada kengaytirish, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimidagi islohotlar, sanoat va infratuzilmani rivojlantirishga asoslanadi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining o‘zaro mutanosibligi borasidagi munosabatlarni samarali boshqarishni talab qiladi.

Bu borada mamlakatimizning yetakchi akademigi Q.X.Abdurahmonov “Turmush darajasini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlar tizimiga bir qator ko‘rsatkichlar kiradi. BMTning turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimiga 12 ta asosiy ko‘rsatkichlar guruhi kiradi. Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi, sanitar-gigienik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol darajasi, uy-joy sharoitlari, ta’lim olish va madaniy imkoniyatlarning mavjudligi, ish sharoitlari va aholini ish bilan bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste’mol narxlari, transport vositalari bilan ta’minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlarining mavjudligi, ijtimoiy ta’minot tizimining mavjudligi, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi ko‘rsatkichlar turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Lekin bu ko‘rsatkichlarning barchasini ham qiymat ko‘rinishida baholashning imkoni bo‘lmaganligi sababli, ushbu parametrlardan bir nechtasini qamrab olgan holda turmush darajasi baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlardan eng asosiysi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar hajmi bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich mamlakat aholisi turmush darajasini baholash bilan birga, xalqaro taqqoslashlarda ham foydalanish imkonini beradigan ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, inson taraqqiyoti indeksi, aho-lining ma’lum guruhlari (kvintel, desil guruhlari) bo‘yicha tabaqalanish koeffitsentlari kabi ko‘rsatkichlar ham tez-tez uchrab turadi” (Abdurahmonov, 2019) deb hisoblaydi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalari hamda 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida quyidagilar alohida belgilandi:

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish - makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash.

Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va

bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish – Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalarini to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish. Umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish.

Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish - maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.

Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish.

Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish- innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.

Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish - majburiy ijtimoiy kafolatlar bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish. Majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish.

Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish - fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta'minlash. Xalqaro tamoyil va standartlarga muvofiq ko'p bosqichli va davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minoti tizimini joriy qilish. Fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilmasdan idoralararo elektron ma'lumot almashinuvi asosida pensiya tayinlash tizimiga o'tish.

Barqaror iqtisodiy o'sish samaradorligi aholi turmush darajasining o'sishini ifodalab o'sish omillari va aholi turmush sifatini yaxshilash, uning tarkibiy komponentlarini tadqiq etish orqali jamiyatning turli ijtimoiy guruhlarining turmush kechirish shart-sharoitlariga bozor iqtisodiyotining salbiy ta'sirini kamaytirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Bu boradagi iqtisodiy mulohazalar mamlakatimizda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning yildan-yilga o'sib borayotganligi salmog'ining o'zgarishida ham ko'rinadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari, ish haqi va pensiyalar salmog'ining o'sishi[1]

Ko'rsatkichlar nomi	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2022 y.	2022 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarish (+,-)
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar (ming so'm)	2192,8	5410,6	12125,6	15854,0	3728,4
o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi (%)	120,1	107,7	98,6	109,9	11,3
Yillik o'rtacha nominal	504,8	964,2	2227,1	2864,7	637,6

hisoblangan ish haqi, (ming so‘m)					
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, (%)	129,4	110,4	118,6	124,5	5,9
Belgilangan o‘rtacha pensiya miqdori, (ming so‘m)	254,0	438,2	848,5	965,7	117,2
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, (%)	125,9	112,8	115,4	118,7	3,3

Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil davrida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 15854,0 ming so‘mni tashkil qilib, uning iste’moldan ortgan qismi passiv daromadlar manbasi bo‘lgan, xodimlarning ish qobilyati bilan bog‘lanmagan jamg‘arishning ham jadallashuviga olib keladi, o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi 6 barobarga oshib borgan.

Barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari har bir hududning o‘ziga xos iqtisodiy rivojlanishi nuqtai-nazaridan farqlanadi. Bu borada biz tadqiqot ishi ob’ekti hisoblangan Sirdaryo viloyatida keyingi bir necha yillar davomida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratamiz.

Jumladan, Sirdaryoning yer, suv va tabiat resurslari boy. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar ko‘p. Viloyatda qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlanganlik darajasi ham yuqori. Bu sohaga ilm va innovatsiya olib kirilsa, mahsulot yetishtirish hajmi va eksportini oshirish mumkin. Sirdaryo respublikamizdagi eng katta iste’mol bozori – Toshkent shahriga yaqin joylashgan. Shuningdek, u ikki qo‘shni davlat – Qozog‘iston va Tojikiston bilan qulay transport koridoriga ega.

Sirdaryo aholisi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan 5 ta yangi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi:

1-yo‘nalish: ilg‘or innovatsiyalar hududida bio-farmatsevtika, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, elektro-texnika, tibbiyot, ta’lim sohalarining 20 ta yo‘nalishidagi loyihalariga alohida imtiyozlar rejimi joriy qilinadi. Unga ko‘ra yer, mol-mulk, foyda va aylanma uchun soliqlar hamda bojxona bojlaridan 3 yilgacha ozod qilinadi. Yer uchastkalari soddalashgan tartibda ajratiladi, yer va binolarni sotib olishda 5 yilgacha bo‘lib to‘lashga ruxsat beriladi.

Shuningdek, Sirdaryoda 500 million dollarlik investitsiya hisobiga O‘zbekiston-Xitoy biotexnologiyalar klasteri barpo etiladi. Unda Xitoyning yetakchi oliygohlari bilan birga Gulistonda xalqaro ta’lim va tadqiqot universiteti, innovatsion tibbiyot klinikasi, Markaziy Osiyo genom markazi, onkologik kasalliklarni davolash uchun Hujayra terapiyasi markazi tashkil qilinadi. Shuningdek, klaster tomonidan zamonaviy diagnostika qurilmalari, innovatsion vaksinalar, probiotiklar va onkologik kasalliklar uchun dori vositalari ishlab chiqariladi. Buning uchun 200 gektar yer ajratilib, 10 ming talaba uchun o‘quv binolari, zamonaviy kampus, laboratoriyalar, muhandislar maktabi tashkil etiladi.

2-yo‘nalish: viloyatning 11 ta tuman va shahri Xitoy modeli asosida sanoatga ixtisoslashadi, har birida innovatsion texnoparklar tashkil qilinadi. Ularda elektrotexnika, bio-farmatsevtika, kimyo, qurilish materiallari, ipak va oziq-ovqat sanoatida innovatsion loyihalar amalga oshiriladi. Texnoparklarga erkin iqtisodiy zona maqomi beriladi va “bojxona hududida qayta ishlash” rejimining soddalashgan tizimi joriy qilinadi. Joriy yilda texnopark infratuzilmasiga 200 milliard so‘m ajratiladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun Sirdaryoda “O‘zbekiston-Xitoy investitsiya jamg‘armasi” tashkil etiladi. Bu jamg‘arma Xitoyning nufuzli Ipak yo‘li fondi va boshqa moliya tashkilotlari bilan birga tashkil qilinadi. Jamg‘armaga 1 milliard dollar sarmoya olib kelinadi.

3-yo‘nalish: Sirdaryoda eng ilg‘or agrotexnologiyalar joriy etiladi. Xitoydan viloyat hokimiga qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maslahatchilar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari modernizatsiyasiga investorlar jalb qilinadi.

Shuningdek, Xitoy tajribasi yordamida Sayxunobodda qoramol va parrandachilik eko-komplekslari, Mirzaobodda intensiv anor, qovun, pekan yong‘og‘i va baliqchilik plantatsiyalari tashkil qilinadi. Xovosda o‘simliklardan tabiiy bo‘yoqlar ishlab chiqarish quvvati, meva-sabzavotni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash texnoparki tashkil etiladi. Sho‘r va suvsizlikka chidamli ekin turlari, chorvachilik nasllarini yaratish bo‘yicha Xitoyning yetakchi oliygohlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

4-yo‘nalish: Sirdaryo mamlakatimizni Qozog‘iston, Tojikiston, Xitoy va Afg‘oniston bilan bog‘laydigan yirik logistika xabiga aylantiriladi. Buning uchun, Xitoylik investorlar bilan hamkorlikda respublikaning sharqiy va markaziy qismlarini hamda chet el yo‘nalishlariga bog‘laydigan yangi transport marshrutlari va multi-modal logistika markazi quriladi. Bulardan tashqari, yo‘llarni qurish, ta’mirlash va boshqarishga xususiy sektorni jalb qilish ham Sirdaryodan boshlanadi.

5 – yo‘nalish: tibbiyotdagi islohotlar natijasi va sohadagi imkoniyatlarga tayanib, Guliston shahri mamlakatimizning “innovatsion meditsina xabi”ga aylantiriladi. Umuman olganda, Sirdaryoda ijtimoiy muammolarni hal qilishga joriy yilgi davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan 685 milliard so‘mga qo‘shimcha 380 milliard so‘m, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga yana 110 milliard so‘m ajratilishi belgilandi.

Xulosa va takliflar

Bizningcha hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlariga ustuvorlik berilishi lozim deb hisoblaymiz:

-barqaror iqtisodiy o‘sish uchun barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim;

- barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishni tartibga soladigan qonun hujjatlarini tanqidiy tahlil qilish;

- ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlarining zamonaviy iqtisodiy vositalarini takomillashtirish;

- ijtimoiy infratuzilma tiziminiga investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali xorijiy investitsiyalar ko‘magida korxonalarga zamonaviy texnik-texnologiyalarni joriy qilish, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish..

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Greening the Economy in Uzbekistan: State of Play in 2023. Monitoring progress based on the OECD Green Growth. September 2023. Saytda mavjud: Indicatorshttps://www.oecd.org/environment/outreach/Green-growth-indicators-Uzbekistan-report.pdf. (Tashrif vaqti: 20.02.2024).

2. The World Bank and Uzbekistan’s Ministry of Economy and Finance: Working Together for a Greener Future. Saytda mavjud: https://www.worldbank.org/en/results/2023/10/26/uzbekistan-realizing-an-inclusive-green-growth-transition (Tashrif vaqti: 20.01.2024).

3. Practical measures taken by the Government of Uzbekistan to implement the 2030 Agenda for Sustainable Development. Saytda mavjud: https://www.un.int/uzbekistan/news/practical-measures-taken-government-uzbekistan-implement-2030-agenda-sustainable-development (Tashrif vaqti: 20.03.2024).

4. Uzbekistan Economic Performance in 2023, Country’s Future Development and the Karakalpakstan’s Issue. Saytda mavjud: https://www.specialeurasia.com/2024/01/15/uzbekistan-2023-economy/ (Tashrif vaqti: 12.03.2024).

5. Towards a Green Economy. Saytda mavjud: https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/Uzb_GRGE_PolicyBrief_ExSum_v1_20210303_DESIGNED.pdf (Tashrif vaqti: 13.04.2024).

6. United Nations Common Country Analysis: Uzbekistan. Saytda mavjud: https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2021-05/CCA-EN-may14_1.pdf (Tashrif vaqti: 11.04.2024).

7. Sustainable Infrastructure for Low-Carbon Development in Central Asia and the Caucasus: Hotspot Analysis and Needs Assessment. Saytda mavjud: https://www.oecd-ilibrary.org/sites/5fd38a3d-en/index.html?itemId=/content/component/5fd38a3d-en (Tashrif vaqti: 02.05.2024).

8. Uzbekistan to direct $183 million to rural infrastructure development. Saytda mavjud: https://kun.uz/en/news/2020/11/28/uzbekistan-to-direct-183-million-to-rural-infrastructure-development (Tashrif vaqti: 02.05.2024).

9. Исматов Р., Набиев Б., Одилжанов Ш. Ўзбекистон Республикаси аҳолисини турмуш даражаси ўзгаришининг иқтисодий таҳлили. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2016 йил. www.iqtisodiyot.uz.

10. Геец В.М. Общество, государсвто, экономика: феноменология взаимодействия и развития. Монография. К.: НАН Украины, 2009. – 864-865 с.